



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**



**2023- YILNING YANVAR-SENTABR
OYLARIDA O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI
MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH**

2023- yilning yanvar-sentabrda O'zbekiston Respublikasi YAIMi hajmi joriy narxlarda **750 925,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda **5,8** % ga o'sdi. YAIM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan **111,2** % ni tashkil etdi.


2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM)¹ (joriy narxlarda, mlrd. so'm)



✓ **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.


2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAIMning o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAIMning deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




✓ **YAIM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIM (real YAIM)ni joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

¹Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillarning yanvar-sentabr oylari uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM (joriy narxlarida, trln. so'm)




2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi YAIMi (mlrd. AQSH dollarida)



Ma'lumot uchun: 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida AQSH dollarining so'mga nisbatan o'rtacha rasmiy kursi 11 556,2 so'm, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 11 009,3 so'm, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 10 565,5 so'm, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 9 940,9 so'm, 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida 8 621,4 so'mga teng bo'lgan.

Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YAIM hajmi **64 980,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAIM o'sishida tarmoqlarning hisssasi (jamiga nisbatan % da)




YAIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i **0,9** f.p., sanoat tarmog'i – **1,4** f.p., qurilish tarmog'i – **0,4** f.p. va xizmat ko'rsatish tarmog'i **2,5** f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAIM **0,6** f.p. ga ko'paydi.


Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining **94,6** % ini tashkil etdi va **5,6** % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri **5,2** foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi **5,4** % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda **7,7** % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri – **0,6** f.p.).

2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi **42,1 %** dan **44,2 %** ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **24,2 %** dan **23,7 %** ga, sanoatning ulushi **26,9 %** dan **25,6 %** ga, qurilish tarmog'ining ulushi **6,8 %** dan **6,5 %** ga kamaydi.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga YAIM (joriy narxlarda, ming so'm)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2019- yilning yanvar-sentabrida **33 490,2** ming kishi, 2020- yilning yanvar-sentabrida **34 144,2** ming kishi, 2021- yilning yanvar-sentabrida **34 819,1** ming kishi, 2022- yilning yanvar-sentabrida **35 546,2** ming kishi va 2023- yilning yanvar-sentabrida **36 312,4** ming kishini tashkil etgan.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda **20 679,6** ming so'mni (yoki **1 789,5** AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga YAIMning o'sish (kamayish) sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)




Yuqorida keltirilgan diagramma-dan ko'rinib turganidek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga YAIM hajminig real o'sishi 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **3,6 %** ni, 2019- yilning mos davriga nisbatan esa **12,3 %** ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yaratilgan qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining yalpi qoʻshilgan qiymati




2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, **qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida** 4,1 % (2022- yilning yanvar-sentabrida – 3,5 %, 2021- yilning yanvar-sentabrida – 4,0 %, 2020- yilning yanvar-sentabrida – 2,6 %, 2019- yilning yanvar-sentabrida – 2,2 %) darajasida ijobiy oʻsish qayd etildi.

Ushbu ijobiy oʻsish surʼatlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,3 % (2022- yilning yanvar-sentabrida – 3,8 %, 2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,6 %, 2020- yilning yanvar-sentabrida – 2,2 %, 2019- yilning yanvar-sentabrida – 2,6 %)ga oʻsishi bilan bogʻliq.

Shu bilan birga, joriy davrda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish esa 4,9 % (2022- yilning yanvar-sentabrida 3,3 %, 2021- yilning yanvar-sentabrida 5,7 %, 2020- yilning yanvar-sentabrida – 3,1 %, 2019- yilning yanvar-sentabrida – 2,3%)ga oʻsdi.


2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yaratilgan sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, **sanoat tarmog'i** qo'shilgan qiymatida **5,7 %** ga o'sish kuzatilgan.


Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati **0,4 %** ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning **6,4 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ining **8,9 %** ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ining **6,8 %** ga ijobiy o'sishi hisobiga ta'minlandi.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




 O'sish (kamayish) sur'ati, % da
 Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
 Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat
 Sanoatning boshqa tarmoqlari
 Hajmi, mlrd. so'm


2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida sanoat tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yaratilgan qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




O'sish sur'ati, % da



Hajmi, mlrd. so'm

2022- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **qurilish ishlari** hajmi **5,6** % ga o'sdi. Jumladan, o'sish sur'atlari bino va inshootlar qurilishida **103,4** % ni, fuqarolik obyektlari qurilishida **105,0** % ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **126,9** % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Ma'lumot uchun: 2023- yilning yanvar-sentabrida qurilish ishlari hajmi **107 793,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi **25,8** %, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi **56,0** %, jismoniy shaxslarning ulushi **18,2** % ni tashkil etdi.


Binolar va inshootlar qurish

Fuqarolik obyektlarini qurish


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi (mlrd. so'mda)


Binolar va inshootlar qurish




Fuqarolik obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari





2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



- Binolar va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yaratilgan xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati




O'sish (kamayish) sur'ati, % da




Hajmi, mlrd. so'm


2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2019




2020



2021



2022



2023



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

Tashish va saqlash, axborot va aloqa


Boshqa xizmat tarmoqlari

2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, **xizmatlar sohasining** yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **314 044,4** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **6,5** % ga o'sdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari **9,1** % ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **10,6** % ga, tashish va saqlash xizmatlari **5,9** % ga, axborot va aloqa xizmatlari **24,9** % ga, boshqa xizmatlar **4,6** % ga o'sdi.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yaratilgan savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati





2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **savdo** tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulushi chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va **63,3** % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi **29,3** % ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi **7,4** % ni tashkil qildi.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yaratilgan tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati





2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yaratilgan tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, **tashish va saqlash** tarmog'ining O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi **5,6** % ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulushi avtomobil transportiga to'g'ri keldi va **53,5** % ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi **15,7** %, temir yo'l transportining ulushi **9,1** %, yordamchi transport faoliyatining ulushi **13,9** %, havo transportining ulushi **7,8** % ni tashkil etdi.

2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yaratilgan axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




2023- yilning yanvar-sentabrida **axborot va aloqa** tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,1** % ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida asosiy ulush aloqa xizmatlariga (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i va boshqalarga) to'g'ri keldi va **54,6** % ni tashkil etdi. Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning qolgan **45,4** foizi axborot va aloqaning boshqa tarmoqlari (nashriyot faoliyati, kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat, dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat, teleko'rsatuv va radio-eshittirish v.b.) hissasiga to'g'ri keldi.


2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2021-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida AKT xizmatlarining yalpi qo'shilgan qiymati



 Hajmi mlrd. so'm




2023- yilning yanvar-sentabrda **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining** mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining **59,2** foizi aloqa xizmatlari, **22,9** foizi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, **10,3** foizi ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, Web-portallar, **3,9** foizi kompyuterlar va aloqa uskunalari ta'mirlash xizmatlari, qolgan **3,7** foizi dasturiy ta'minotni chiqarish hissasiga to'g'ri kelgan.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat

363 965,3 mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo'yicha **kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari** tomonidan **363 965,3** mlrd. so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning **51,2 %** i yaratilgan. Shundan **44,6 %** i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, **10,9 %** i sanoat, **9,6 %** i qurilish tarmoqlari va **35,0 %** i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

YAIMda kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi, YAQQga nisbatan % da



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **96,5 %**, qurilishda **76,0 %**, xizmatlar sohasida **40,5 %** va sanoatda **21,7 %** ni tashkil etdi.

